

## MISR EHROMLARINI KIMLAR QURGAN?

Xo'jamberdiyev Ma'murjon Mirkomil o'g'li

Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti Tarix (mamlakatlar va mintaqalar bo'yicha) yo'nalishi II bosqich talabasi

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada "Dunyoning yetti mo'jizasi"dan biri bo'lgan va hozirga qadar saqlanib kelgan Misr ehromlari haqida qisqacha ma'lumotlar joy olgan. Shu bilan birga, Misr hududida olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida aniqlangan ma'lumotlarga asoslanib piramidalarning qurilishi haqida olimlarning fikrlari va farazlari bayon etilgan. Maqolada Misr ehromlarining qurilishi jarayoni qay tarzda kechganligi to'g'risida so'z yuritiladi.

**Kalit so'zlar :** Joser, Giza, Xufu, Xafra, Menkaura, Snofru, Gerodot, sfinks, sarkofag, mastaba, Memfis, Merer, Imxotep, Sakkara, Medum, Daxshur, Shohlar vodiysi, Richard Lepsius, Gaston Maspero, Qizil dengiz papiruslari, Set I, Tutanxamon.

## WHO BUILT THE EGYPTIAN TEMPLES?

**Khujamberdiyev Mamurjon**

Fergana State University, Faculty of History, 2 nd year student of History (by country and region) course

### ABSTRACT

This article contains brief information about the Egyptian pyramids, which are one of the "Seven Wonders of the World" and have been preserved until now. Thoughts and assumptions are stated. The article talks about how the process of construction of the Egyptian ehrs took place.

**Keywords:** Joser, Giza, Khufu, Khafra, Menkaura, Snofru, Herodotus, sphinx, sarcophagus, mastaba, Memphis, Merer, Imhotep, Saqqara, Medum, Dakhshur, Valley of the Kings, Richard Lepsius, Gaston Maspero, Red Sea Papyri, Set I, Tutankhamun.



## KIRISH

Misr ehromlarining sirlari uzoq yillardan beri ko'pchilik odamlarni qiziqtirib keladi. Misr me'morchiligi qadimgi dunyoda eng taraqqiy etganligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, piramidalar qurish o'sha davr uchun emas, hatto hozirda ham yuksak me'morchilik asari hisoblanadi. Qurilishda toshdan keng foydalanish Misr me'morchiligini Sharqning boshqa qismidagi arxitekturadan ajratib turadi, unga o'ziga xoslik baxsh etadi. Piramidalar qurilishida toshdan keng foydalanish va ularni kerakli shakllarga keltirish uchun yo'nish va kesish qadimgi dunyo uchun juda katta mahorat va mehnat talab qilgan. Bunda ulkan inshootlarni qurish uchun yuksak tajribaga ega bo'lgan kishilarning, quruvchi-ustalarning, me'morlarning aql-zakovati talab etilgan. Bizning davrga qadar saqlanib qolgan piramidalarni kimlar qurgan ekan? Ularni qurishda qanday texnikalardan foydalanishgan bo'lishi mumkin? Ba'zi olimlarning fikrlariga ko'ra, piramidalarni o'zga sayyoraliklar qurishgan, lekin bu qanchalik asosga ega? Bu fikrlar haligacha o'z tasdig'ini topgan emas. Hech qanday dalillar yo'q, ammo olib borilgan arxeologik qazish ishlari natijasida piramidalarni kimlar qurganligini haqida ma'lumotlar va farazlar mavjud.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Misrda haykaltaroshlik, me'morchilik kabi sohalarda diniy e'tiqodga o'ta darajada qaramlik yaqqol seziladi. Mil.avv. III ming yillikdayoq Misr san'atida xudo va fir'avnlarning cheksiz qudrati g'oyasini namoyon etish shakllangan. Bu g'oyalar piramida va ibodatxonalar, ulkan haykallarni yaratishda o'z aksini topadi. Me'morchilikda fir'avnlarni uchun qabrlar, ya'ni piramidalar, ibodatxonalar qurish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar Misr sivilizatsiyasini to'liq aks ettiruvchi biron-bir yodgorlikni tanlash lozim bo'lsa, ko'pchilik mutaxassislar so'zsiz piramidalarni tanlashadi. Piramidalar-bu Misrning ramzi. Ulkan piramidalarning qurilishi fir'avning kuch-qudratini bildiradi, lekin bunday buyuk qurilishlar butun mamlakat aholisining sillasini quritgan. Olimlar qadimgi Misr madaniyatini butun mahobati bilan tasavvur qilish imkonini beruvchi ko'plab arxeologik yodgorliklarni va xujjatlarni ana shu maqbaralardan topganlar. Shuni ta'kidlash kerakki, misrliklar kelgusi hayotning tinch va samarali bo'lishi uchun maqbaralarga alohida e'tibor qaratishgan. Qadimgi Sharq xalqlaridan farqli ravishda, misrliklarning o'y-xayolida narigi dunyo muammosi asosiy o'rinni



egallagan. Misrlıklar yerdagi yaxshi amallar narigi dunyoda, albatta, o'z mukofotini olishiga ishonishgan.<sup>1</sup>

Misr tarixini o'rganishda arxeologik yodgorliklar muhim o'rinni egallaydi. Sababi qadimgi dunyo tarixi yozma manbalardan ko'ra ko'proq moddiy manbalar asosida o'rganiladi. Misr tarixini juda ko'plab olimlar tadqiq etgan. Nemis olimi Richard Lepsius Misr tarixini sinchiklab o'rgandi. Olim Memfis shahri yaqinida yarim yil davomida Qadimgi podsholikka tegishli bo'lgan 67 ta piramida va 130 ga yaqin zodagonlarning sag'analarini tadqiq qildi. Gaston Maspero XIX asr oxirida Sakkaradagi piramidalarni tadqiq qilib, V-VI sulola piramidalarining xonalari ichki devorlaridagi matnlarni chop qildi. Fiva shahrida Yangi podsholik fir'avnlarning mo'miyolari yashirilgan ulkan maxfiy joyni topdi.

Misrda III va IV sulola zamonida hukumatning faoliyati, asosan, qo'shni hududlarni istilo qilish va davlatni ichki tomondan mustahklamlashdan iborat bo'lgan. Ushbu sulola fir'avnlari tomonidan qurilgan piramidalar bu siyosatning va, shu bilan birga, monarxistik davlatning qudratini ko'rsatishning ifodasidir. Katta-katta xarsang tosh plitalardan qilingan hashamatli maqbaralar yuz minglab kishilarning markaziy hokimiyat buyrug'i bilan uzoq vaqtlar davomida podsho uchun juda katta maqbaralar qurib unumsiz mehnat qilishga majbur bo'lganliklaridan guvohlik beradi. Hashamatli piramida shaklida ishlangan bu inshootlar Misrning qadimgi poytaxti Memfis hamda hozirgi Qohira yaqinidagi Sakkara va Gizada hozirgi vaqtda ham mag'rurona qad ko'tarib turibdi. Bu piramida shaklidagi maqbaralar podsho qo'lidagi hokimiyatining naqadar zo'r ekanligini butun xalq oldida yaqqol namoyish qilish maqsadida qurilgan. Podshoning cheklanmagan hokimiyatini o'rnatishga asoslangan tuzimi xuddi shu davrda tashkil topgandir<sup>2</sup>.

Dastlabki piramidalar g'isht va boshqa tez buziladigan materiallardan qurilgan. Keyinchalik esa piramidalar qurilishida keng foydalanilgan materiallar ohaktosh va qumtosh bo'lgan. Granit va shu kabi o'yilishi qiyin bo'lgan toshlar kamroq miqdorda ishlatilgan. Devorning ichki qismini qurishda ko'pincha qo'polroq va sifatsiz toshlardan foydalangan holda amalga oshirilgan. Ehrom qurilishi tugallangandan so'ng silliq sirt yaratish uchun toshlarning qo'pol yuzlari o'yilgan.

<sup>1</sup> Эргашев Ш. Кадимги цивилизациялар. –Тошкент: О'zbekiston, 2016. 80-бет.

<sup>2</sup> Авдиев В. Кадимги Шарк тарихи. –Тошкент, 1964. 225-бет.



Sagʻanalarning ikki xili:yer usti sagʻanalari (VI sulola piramidalari) va qoyaga oʻyilgan sagʻanalar (Yangi podsholik davrida) keng tarqaldi.Piramida va sagʻanalar qurish uchun I-II sulola firʻavnlari dafn qilingan mastabalar na'muna boʻlib xizmat qildi.<sup>3</sup>

Avval boshida misr meʼmorlari podsholar uchun quriladigan maqbaralarning piramidasimon shaklini darhol topgan emaslar.Birinchi Misr piramidasini mil.avv. 2650-yillar atrofida Sakkara yaqinida qurilgan.Sakkarada III sulola firʻavni boʻlgan Joser bu tipdagi birinchi maqbarani qurdirgan. Joser gacha Misr firʻavnlari xom gʻishtdan qurilgan yassi bino – mastaba (arabcha – oʻtirgʻich)ga dafn qilinar edilar. Joserning maqbarasi ilk piramida shaklidagi biri ustidan ikkinchisi ustma-ust qoʻyilgan zinapoyasimon 6 mastabadan (balandligi 60 metr) iborat boʻlib, ohaktoshdan bunyod qilingan. Joser piramidasini Sakkara hududida saroy meʼmori, bosh maslahatchi Imxotep qurdirgan. Oliy amaldor hisoblangan Imxotep piramida qurish uchun yangi dizayndan foydalangan. Piramida katta devorga ega.Uning atrofi nozik ohaktosh bilan qoplangan.Ushbu devor butun boshli arxitektura ansamblini oʻrab turgan.Inshoot atrofida oʻtkazilgan qazishma ishlari natijasida butun boshli murakkab arxitektura ansambli topildi.Bu imoratlar gruppasi podsho piramidasini va butxonasidan,podsho yubileylariga bagʻishlangan katta ibodatxona ustunlari tizmasidan,bu ibodatxona yoniga solingan kichik ibodatxonacha,maqbaralar va podsho qizlarining butxonachalaridan iboratdir.Imxotepni keyinchalik afsonaviy obrazga aylantirishib,uni xattotlar,yozuv va bilimlar piri deb hisoblaganlar.Imxotepning nomi firʻavn Joser haykali xarobalari ichidan topilgan yozuvda saqlanib qolgan.

Joserdan keyingi firʻavnlari Memfisda gʻarbda oʻz piramidalarini qurdilar. Podsholarning ikkita hashamatli maqbarasi firʻavn Snofruning podsholik qilgan zamonida qurilgan.IV sulolaning asoschisi Snofru (mil.avv. 2600-yillar atrofida) boʻlib,u oʻziga piramidasimon ikki maqbara qurdirgan.Bularning biri Medumda,ikkinchisi esa firʻavn ruhini yoʻqlash marosimi oʻtkaziladigan Daxshurda joylashgan.Medum piramidasini yetti qavatli imorat sifatida qurilgan boʻlib,keyin bu imoratning ustiga sakkizinchi qavat ham qurilgan.Xuddi tabiiy qoyaga oʻxshab turgan bu maqbaraga keyinchalik juda ustalik bilan piramida tusi berilgan.Qoyaning eng pastki qismida bir zamonlar podshoning moʻmiyosi saqlangan kichkina hujra bor.Daxshurdagi ikkinchi podshoning maqbarasi toʻgʻri

<sup>3</sup> Rajabov R. Jahon tarixi. –Toshkent,Yangi asr avlodi, 2015. 76-bet.



geometrik piramida shaklida qurilgan. Balandligi 99 metr keladi hamda yonida maqbara ibodatxonasi bo'lib, atrofi tosh devor bilan o'ralgan. Tosh terilgan yo'llari bo'lgan bu maqbara Misr podshosining qudratidan guvohlik beruvchi ajoyib manzara hosil qilishi lozim bo'lgan. Fir'avn Snofruning vorislari davrida ulug'vor piramidalar qurilishi davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ishga aylanadi.

Gizadagi cho'l ichida hozirgi vaqtda ham mag'rurona qad ko'tarib turgan Xufu piramidasi hamma podsholarning buyuk piramidalari orasida eng kattasi hisoblanadi. Fir'avn Xufu mil.avv. 2566-yilda vafot etgan. Fir'avn Xufu (yunoncha – Xeops) o'zi uchun asosi 230 kv.km, har birining og'irligi 2,5 tonna bo'lgan, 2,3 mln og'ir tosh blokdan tashkil topgan piramida qurdirgan. 52900 kv.metr joyni egallagan bu piramidaning balandligi qadimgi vaqtda 146 metr bo'lgan. Yunon tarixchisi Gerodotning ma'lumotiga qaraganda, Xufu (yunonchasiga-Xeops) piramidasi 20 yil davomida 100 ming kishi tomonidan qurilgan. Ba'zi manbalarda 30 yil davomida qurilgan deb yoziladi. Fir'avn Xafra piramidasi ham Gizada qurilgan bo'lib, u Xufu piramidasi sal pastroq, ya'ni 143 metr, lekin Xafra piramidasi yaxshiroq saqlangan. Piramida qoplamasidan saqlanib qolgan qismi u zamonda toshtaroshlik texnikasining yuksak darajada bo'lganligini ko'rsatadi. Xafra piramidasi so'ng piramidalar kichik hajmda qurila boshlandi. Gizadagi uchinchi piramida fir'avn Menkaura tomonidan qurilgan bo'lib, bu piramida boshqalariga qaraganda xiyla kichik va balandligi ham bor-yo'g'i 66 metr keladi. Menkaura podsholik qilgan zamonda IV sulola fir'avrlarining moddiy resurslari va hokimiyat kuchi tushkunlikka uchray boshlagan<sup>4</sup>.

Piramidalar ohaktoshlardan qurilib, granit plitalar bilan qoplangan. Piramidalar qurilishiga yuz minglab kishilar jalb qilingan. Ishchilar qurilish yaqinida bunyod qilingan shaharchada yashaganlar. Quruvchilar uchun ovqat tayyorlaydigan, non yopadigan yuzlab kishilar xizmat qilgan. Piramidalar yaqinidan non yopilgan tandirlar, ovqat tayyorlanadigan o'choqlar qoldiqlari topilgan. Piramida qurilishida ishtirok etgan oddiy ishchi boshqaruvchi lavozimigacha ko'tarilishi mumkin bo'lgan. Gizadagi bu uch piramida podsho qarindoshlari, katta-katta mansabdorlar va amaldorlarning juda ko'p maqbaralari bilan o'ralgan. Juda katta "o'liklar shahri" hozirgi vaqtda sinchiklab kovlangan bo'lib, undan topilgan narsalar bu davrning moddiy madaniyati, san'ati va tarixining yorqin manzarasini ochib beradi. Keyingi sulolalar davrida qurilgan piramidalar o'lchamlari jihatidan anchagina kichik va

<sup>4</sup> Авдиев В. Кадимги Шарк тарихи. –Тошкент, 1964. 229-бет.



yaxshi qurilgan emas.V sulola fir'avnlari (miloddan avvalgi XXVI–XXV asrlar) ulkan piramidalar qurishdan voz kehdilar va kichik piramidalar barpo qila boshladilar. Sulolaning so'nggi vakili Unas birinchi bor o'z piramidasi ichiga fir'avn o'limidan keyin, u dunyoda yashashi bilan bog'liq bo'lgan keng to'plamli yozuvlarni–piramida matnlarini kiritgan<sup>5</sup>.

VI sulola ehromlari me'morchilik san'atining durdonasi bo'lsa-da,Xufu ehromiga nisbatan juda kichkina bo'lib ko'rinadi.Yangi podsholik davriga kelib esa qoyaga o'yib ishlangan tosh sag'ana shohlar jasaki qo'yiladigan asosiy dahma turiga aylanadi.Piramidalarning monumentalligi ularni,nafaqat fir'avn hokimyatining kuchli timsoliga,balki qabrlarda o'g'irlik sodir etuvchilar uchun ham aniq nishonga aylantirdi.Olimlarning ta'kidlashlaricha,qadimgi matnlar ham bunday o'g'irliklarning ko'plab bo'lganligini tasdiqlaydi.Aynan shu sabab odamlarni maqbara qurish uchun borish qiyin bo'lgan uzoq joy tanlashga ham majbur qiladi.Shunday joylardan biri Fivadan g'arbda joylashgan Shohlar vodiysi bo'lib,u yerda Tutanxamonning qabrlari topilgan.Yana bitta shunday joy-Malikalar vodiysi,u janubroqda bo'lib,fir'avnlarning xotinlari va bolalari ko'milgan.Shohlar vodiysida joylashgan qadimgi podsholik qabrlari butunlay ko'zdan yashirilgan.XIX-XX sulolalar davrida qabrlar qoyalarni o'yib,uning ichiga dafn qilindi va qoya yuziga o'yilgan eshik orqaligina u yerga kirish mumkin edi.Eshikdan kirishda dafn xonasiga olib boruvchi bir nechta yo'laklar qurilgan.Dafn xonasi esa tog'ning pastki qismida joylashgan.Dafn xonasida granitdan yasalgan sarkofag bo'lib,xona devorlari boshidan oxirigacha diniy rasmlar va iyerogliflar bilan qoplangan.Qoyaga o'yib ishlangan qabrlarning eng yaxshisi XIX sulola fir'avni Set I ning qabridir.U tog'ga 100 metr o'yib qurilgan va eng pastda ajoyib dafn xonasini o'z ichiga oladi.Keyingi sulolalar davrida qirollik qabrlari aniqlanmagan.

Misrliklar maqbaraga toshtobut(sarkofag)dan tashqari turli xil sovg'alar ham qo'yishgan.Shu tariqa marhum u dunyoda hayotini tinch davom ettiradi va yerga qaytib tiriklarni bezovta qilishni istamaydi,deb o'ylashgan.Zero,qadimgi Sharqning barcha sivilizatsiyalari ichidagi alohida ahamiyat kasb etuvchi Misr sivilizatsiyasida marhumlarning sirli kuchlari oldida qandaydir dahshatli qo'rqinch bo'lgan.Tiriklar ularga bezovta qilmasliklari uchun iltimoslar

<sup>5</sup> Rajabov R. Jahon tarixi.-Toshkent:Yangi asr avlodi,2015. 30-bet.



qilishgan,yolvorishgan.Marhumlarga xat-misr adabiyotining tipik janri sifatida tarixda qolgan.

Piramidalarni ulkan sfinks qo'riqlab turadi. Barcha sfinkslar ichida eng qadimgisi IV sulola fir'avni Xafri topshirig'iga ko'ra miloddan avvalgi 2500-yili Gizada qurilgan sfinks bo'lib,u dastlab yotgan sherni eslatuvchi qoyadan iborat bo'lgan. Uning boshi fir'avn Xafraning boshi bo'lishi mumkin,degan taxminlar bor.Sfinks sharqqa-quyosh chiqadigan tomonga qarab turadi. So'nggi 4-5 ming yil ichida uni qum bosgan. Mil.avv. 1419-yilda Sfinksga bitilgan yozuv haykal panjalari orasida uxlab qolgan shahzoda Ramzes IV tarixini hikoya qiladi. Uning tushida quyosh ma'budi kelib, agar u Sfinksni qumdan tozalasa fir'avn bo'lishini aytadi.Shahzoda uning aytganini qiladi, shundan so'ng u fir'avn tojini kiyadi.Keyinchalik sfinks haykaltaroshlikning alohida turiga aylanadi va ibodatxonalarga kiraverishni butun boshli sfinkslar galasi qo'riqlaydi.

## MUHOKAMA

Hozirgi vaqtda arxeologik tadqiqotlar,ko'plab chizmalar va yozma ma'lumotlarga asoslanib,piramidalarni qurish uchun xom-ashyolar va materiallar qazib olingan karerlarning joylashuvi,shuningdek,toshni qazib olish va tashish usullari haqida keng ma'lumotlarga ega.Qadimgi misrliklar I sulola davridan boshlab karerdan tosh qazib olishni bilishgan.Nekropollarda olib borilgan arxeologik qazishmalarda qattiq jinlardan yasalgan og'ir bolg'achalar topilgan.Toshli devorlarni tekislash uchun mis kesklar va tosh terish asboblari ishlatilgan.Arxeologlar Yuqori Misrdan tosh kesish asboblarini ishlab chiqaruvchi qadimiy ustaxonalarni topib o'rgandilar. 2013-yilda Qizil dengiz sohilida olib borilgan qazishmalar paytida bir guruh fransuz va misrlik tadqiqotchilar Xeops hukmronligining oxirgi davriga oid papirus arxivini topdilar.Bu "Qizil dengiz papiruslari" deb ataladi.Hujjatlarning ko'pchiligida ishchilarga yetkazilgan zaxiralar uchun hisob-kitoblar aks ettirilgan.Ikkita hujjatda,ya'ni bu hujjatlarning muallifi bo'lgan Merer ismli shaxs boshchiligidagi 40 nafar ishchi brigadasi tomonidan 3-5 oy davomida har kuni amalga oshirilgan harakatlar,qilingan ishlar tavsiflangan.Matnlarda Nil daryosidan 12 km uzoqlikdagi Xeops piramidasiga ohaktosh bloklarini tashish texnikasi ochib berilgan.Brigadalar yelkanli yog'och qayiqdan foydalangan va bu qayiqning ustida o'nlab bloklarni Nil daryosidan piramidaning oldigacha qurilgan kanal orqali olib kelishgan.Bitta qayiq brigadasi bir yillik mavsumda,ya'ni Nil



daryosining toshqini paytigacha taxminan 1000 blokni tashigan. Ishilar uchun eng qiyin ish-bu bloklarni boshqa joyga ko'chirish edi. Bloklarni bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishning eng keng tarqalgan usuli-yuklarni chanalarda tashish edi. Bitta chanaga 8 ishchi yetarli bo'lgan. Ishchi yo'l bo'ylab qumga suv quygan, bu esa sirpanishni osonlashtirgan. 2014-yilda Amsterdam universitetining golland fiziklari bu nazariyani tasdiqladilar. Liviya platosidan ohaktosh bloklarini piramida qurilish maydonchasiga yetkazish uchun diametri 10-20 sm va uzunligi 80 sm gacha bo'lgan tosh silindrlar ishlatilgan. Tosh bloklar oldinga siljiganda, orqada qolgan silindr oldinga ko'chirilgan. Shu ketma-ketlik orqali toshlar harakatga keltirilgan.<sup>6</sup>

## NATIJA

Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, piramidalarning qurilishida ishlatilgan mehnat qurollari va aslahalar hozirgi kunga qadar saqlanib qolgan va ular yordamida toshlar yo'nilgan, kesilgan va inshoot qurilishi uchun muhim bo'lgan shaklga keltirilgan. Ushbu qurollar yordamida turli xil materiallardan foydalanish mumkin bo'lgan. Nisbatan yumshoq toshlar, masalan, ohaktosh bilan ishlashda ishchilar mis va bronza nayzalardan, bolg'achali keskilardan foydalanishgan. Bizgacha yetib kelgan qurollarda zarba izlari saqlanib qolgan. Shuni yodda tutish kerakki, turli davrlarda qurilgan piramidalarni qurish texnologiyasi sezilarli darajada o'zgargan. II sulolaning birinchi piramidalari avval qurilgan mastabalar kabi xom g'ishtdan qurilgan. Keyingi piramidalar uchun materiallar o'zgargan va toshdan foydalanish boshlangan.

Piramidalarni qurish jarayonini tasvirlaydigan yagona yozma manba miloddan avvalgi 450-yillarda Misrga tashrif buyurgan Gerodotning "Tarix" kitobidir. Uning II kitobi bu haqida ma'lumot beradi. Gerodot misrliklardan piramidalar qurilishi haqida bilishga harakat qilgan, ammo bu juda mushkul ish edi. Sababi misrliklar ham piramidalar qurilishi haqida ma'lumotga ega emas edilar. Gerodot yiqqan ma'lumotlarga ko'ra, piramidalar qurish uchun ulkan tosh bloklari Arabiston tog'laridan olib kelingan. Liviya platosidan och sariq va kulrang ohaktoshlar qazib olingan. Bazalt-Fayum vohasi yaqinidan keltirilgan. Granit esa Gizadan ming kilometr uzoqlikda joylashgan Asvondan olib kelingan. Toshlar Nil daryosi bo'ylab kemalarda olib o'tilgan. Toshlarni Misrga keltirish uchun ikkita yo'l bo'lgan. Bu yo'llarni qurish ham juda katta mehnat talab qilgan. Bu yo'llarni qurish 10 yilni

<sup>6</sup> Папирусы Красного моря: "Журнал Мерер".





talab qilgan. Yo'llar toshdan barpo etilgan. Toshlar qiyinchiliklar bilan qurilish maydoniga olib kelingach, piramidaning birinchi pog'onasi uchun terib chiqilgan. Toshlar ko'tarish moslamasi orqali keyingi pog'onaga olib chiqilgan. Ikkinchi pog'ona ham qurib bitkazilgach, ko'tarish moslamalari keyingi pog'onaga ko'chirilgan. Shu yo'sinda qurib bitkazilgan.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, Misr ehromlari bejizga "Dunyoning yetti mo'jisi" dan biri tarkibiga kirgan emas. Ularning qurilgan davriga e'tibor qaratadigan bo'lsak, bundan deyarli 4500 yil muqaddam qurilgan ushbu inshootlar qadimgi davr uchun juda katta mahorat va mehnat talab qilgan, lekin o'z davri uchun mavjud bo'lgan qurollar yordamida amalga oshirilgan qurilish ishlari haqiqatdan ham hayratlanarli. O'sha davrda mehnat qilgan ishchilar ma'lum ma'noda yaxshigina aql va mahorat sohibi bo'lishgan. Ulkan toshlarni Misr hududigacha yetkazish uchun ham tafakkur kuchi kerak bo'ladi va buni qadimgi misrliklar uddalay olishgan. Ularni qurishda qullar kuchidan foydalanilgan, ayniqsa, katta tosh bloklarini harakatga keltirish uchun bu juda ham kerak bo'lgan. Ammo qurilish strukturasi, dizayni va qurilishning borishi uchun tuzilgan rejalar buyuk me'morlar tomonidan amalga oshirilgan. Piramidalarning qad ko'tarishi uzoq muddatni talab qilgani uchun uning qurilishi boshlanishida ishtirok etgan ishchi yillar davomida tajribaga ega bo'lgan va oddiy ishchi darajasidan boshqaruvchi darajasigacha ko'tarilgan.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Авдиев В. Кадимги Шарк тарихи. –Тошкент, 1964.-785 бет.
2. Эргашев Ш. Кадимги цивилизациялар. –Тошкент: O'zbekiston, 2016.-360 бет.
3. Орзиев М. Эргашев Ж. Жахон цивилизациялари тарихи. -Бухоро, 2018.-167 бет.
4. Кинк Х. Как строились египетские пирамиды. -Москва: Наука, 1967.-112 с.
5. Папирусы Красного моря: "Журнал Мерпер".
6. Rajabov R. Qadimgi dunyo tarixi. –Toshkent: Fan va texnologiya, 2009.
7. Rajabov R. Jahon svilizatsiyalari tarixi. -Toshkent: Mashhur-press, 2016. -300 bet.
8. Rajabov R. Jahon tarixi. -Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.-604 bet.

